



“Sug‘diyona” JTSK hududida joylashgan “Delfin” suzish havzasini joriy ta‘mirlash ishlari uchun eng yaxshi takliflarni tanlash bo‘yicha

XARID QILISH HUJJATLARI

Eng yaxshi takliflarni tanlash e‘lon qilinadi

Tanlashda Xarid qilish hujjatlari talablariga javob beradigan mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, har qanday yuridik shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

1. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi” Davlat muassasasi

Buyurtmachi manzili: 210100, O‘zbekiston Respublikasi, Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi 21

"Buyurtmachi"ning rekvizitlari:

X/r: 2021 0000 4053 8698 2001 STIR 308450922,

IFUD(OKЭД) 84120, MFO 00196

2. Tanlov mavzusi: “Navoiy” HB ga qarashli “Sug‘diyona” JTSK hududida joylashgan “Delfin” suzish havzasini joriy ta‘mirlash ishlari.

3. Xaridning maksimal qiymati: “Delfin” suzish havzasini joriy ta‘mirlash ishlarining tasdiqlangan smeta hujjatlari asosida **175 324 885 (Bir yuz yetmish besh million uch yuz yigirma to‘rt ming sakkiz yuz saxon besh)** so‘m (QQS bilan birga).

4. Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o‘z mablag‘laridan.

5. To‘lov valyutasi: So‘mda.

6. Tanlashda ishtirok etish uchun Ishtirokchi Xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan texnik-tijorat taklifini o‘z vaqtida taqdim etishi shart.

7. Tanlash ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar

Xarid komissiyasi ishtirokchini quyidagi holatlarda tanlashda ishtirok etishdan chetlatadi:

- Agar Ishtirokchi Xarid qilish hujjatlari talablariga javob bermasa;
- Ishtirokchining raqobatga qarshi harakatlari yoki tanlash ishtirokchisining Buyurtmachi va/yoki uning affillangan shaxslari bilan manfaatlari to‘qnashuvi to‘g‘risida axborotning mavjudligi;
- ta‘sischilar bir xil yuridik yoki jismoniy shaxslar bo‘lgan ikki yoki undan ortiq kompaniyani tanlashda ishtirok etishi;
- “NKMK Jamg‘armasi” DM dan ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarini yoki “NKMK Jamg‘armasi” DM bilan sud muhokamasi holatida bo‘lgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik.

8. Texnik-tijorat taklifining shakli va mazmuniga qo'yiladigan talablar

8.1. Elektron tanlashlarda ishtirok etish uchun elektron tizimda ro'yxatdan o'tish:

Ishtirokchi Elektron tanlashda ishtirok etish uchun portaldagi Ishtirokchining anketa-arizasini elektron shaklda (mijoz turi, shaxsiy ma'lumotlar, aloqa ma'lumotlari) to'ldirib, xarid.uzex.uz saytida ro'yxatdan o'tadi.

Ishtirokchilarni elektron savdoga qabul qilish quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

- shartnoma tuzish huquqiga egaligi;
- soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzlarning yo'qligi;
- ularga nisbatan bankrotlik tartib-taomillarining yo'qligi;
- insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga ular kirmaganligi.

Ishtirokchi anketa-ariza ma'lumotlarida unga nisbatan kiritilgan bankrotlik tartib-taomillarining yo'qligi, shuningdek soliq va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Ishtirokchi ariza shaklini to'ldirgandan so'ng, Elektron tizim Ishtirokchining vijdotsiz ijrochilarning yagona reyestriga kirmaganligini aniqlash uchun ma'lumotlarini tekshiradi.

Ro'yxatga olish jarayoni tugagandan so'ng, Hisob-kitob kliring palatasida (HKP) Ishtirokchi uchun shaxsiy hisob ochiladi. Ishtirokchilar HKPdagi shaxsiy hisob raqamiga avans to'lovlarini kiritgandan so'ng elektron tanlashga ruxsat etiladi.

Buyurtamachi va Ishtirokchilar elektron raqamli imzodan (bundan buyon matnda ERI deb yuritiladi) foydalangan holda elektron tanlovda ishtirok etadilar. Buyurtamachi va Ishtirokchilarning ERI dan foydalanishi elektron tizimda tuzilgan shartnomaning haqiqiylikini tan olish uchun asosdir.

8.2. Texnik-tijorat taklifining mazmuniga qo'yiladigan talablar

Ishtirokchining texnik-tijorat taklifi barcha majburiy rekvizitlar ko'rsatilgan holda taqdim etilishi kerak:

- kompaniya nomi;
- yuridik manzili;
- STIR;
- bank rekvizitlari;
- aloqa ma'lumotlari;
- rahbarning imzosi, korxon muhri.

Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklifni taqdim etishga haqli!

Taklifning texnik qismida quyidagilar bo'lishi kerak:

- bajariladigan ishlar tartibi;
- ishlarni bajarishda ishtirok etadigan resurslarning batafsil tavsifi, ko'rsatiladigan xizmatlar;
- Ishtirokchi xodimlarning malakasi, soni va tajribasi haqida ma'lumot;
- kafolat majburiyatlari.

TAKLIFNING TEXNIK QISMI TEXNIK TOPSHIRIQNING TALABLARIGA TO'LIQ JAVOB BERISHI KERAK!

Taklifning tijorat qismida quyidagilar bo'lishi kerak:

- bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarning umumiy narxi;
- bajariladigan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlarning umumiy narxini batafsil bayon etish;
- to'lov shartlari;
- ishlarni bajarish muddatlari.

YUQORIDAGI BARCHA TALABLARGA JAVOB BERMAYDIGAN, SHUNINGDEK, ISHONCHSIZ MA'LUMOTLARNI O'Z ICHIGA OLGAN ISHTIROKCHILARNING TAKLIFLARI RAD ETILADI!

Tijorat taklifi bilan birgalikda ishtirokchi korrupsiyaning oldini olish to'g'risida ariza taqdim etishi shart.

9. Ishtirokchilar takliflarini baholash mezonlari

9.1. Malakaviy mezonlar

№	Ro'yxat	1-ishtirokchi	2-ishtirokchi
		Taqdim etilgan / taqdim etilmagan	
1.	Tanlash ishtirokchisining texnik-tijorat taklifi (narx taklifi tanlov ishtirokchisining texnik-tijorat taklifining bir qismidir) Xarid qilish hujjatlari talablariga javob berishi kerak		
2.	Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) to'g'risidagi guvohnoma yoki ma'lumotnoma		
3.	Litsenziya (agar faoliyat turi litsenziyalanadigan bo'lsa)		

Ishtirokchi 9.1-bo'limning har qaysi bandiga muvofiq baholash mezonlari bo'yicha ushbu hujjatlarni taqdim etmagan taqdirda Xarid komissiyasi Ishtirokchining taklifini rad etish huquqiga ega.

Ber...

9.2. Tanlash ishtirokchisining texnik mezonlari:

No	Ta'rif	1-ishtirokchi	2-ishtirokchi
1.	Bajaruvchi mustaqil ravishda oxirgi 2 yilda kamida 4 ta shu turdagi ishlarni amalga oshirgan bo'lishi kerak.		
2.	Bajaruvchining ushbu sohada kamida 3 yil ish tajribasi bo'lishi kerak.		
3.	Bajaruvchi ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan kamida 4 nafar yuqori malakaga mutaxasislarga va ishlarni bajarish uchun hajmidan kelib chiqqan holda kamida 12 nafar tajribali ishchi xodimni jalb qilishi kerak.		
4.	Bajaruvchi ishlarni bajarishi uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalarga ega bo'lishi va ularning soni haqida ma'lumot berishi kerak.		
5.	Bajaruvchi tomonidan foydalaniladigan qurilish mahsulotlari sertifikatga ega bo'lishi kerak.		

Ishtirokchining taklifi baholash mezonlarining 9.2 bo'limining har qanday bandiga mos kelmasa, Xarid komissiyasi ushbu taklifni rad etish huquqiga ega.

9.3. Narx taklifini baholash mezonlari:

9.1 va 9.2 bo'limlariga muvofiq malaka va texnik baholardan o'tgan tanlash ishtirokchilariga tijorat bahosiga ruxsat beriladi

t/r	Baholash parametrining nomi	1-ishtirokchi	2-ishtirokchi
1.	Tayinlangan narx		
2	Belgilangan ball (eng past narx-eng yuqori ball/eng yuqori narx-eng past ball)		

10. Xarid qilish hujjatlarini o'zgartirish

Xarid komissiyasi asosli ravishda Xarid qilish hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaguniga

Berevich

qadar bir ish kundan kechiktirmay qaror qabul qilishi mumkin. Ish, xizmat nomini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.


Xarid komissiyasi a'zolari:

Kapital va joriy ta'mirlash bo'limi
boshlig'i



S.O. Abdihakimov

Prognozlash va iqtisodiy tahlil bo'limi
boshlig'i



N.U. Mustapayev

Bosh buxgalter



H.A. Chuttiyev

Yuridik xizmati boshlig'i



M.F. Muzaffarov

Xaridlarni rejalashtirish va zahiralarni
boshqarish xizmati boshlig'i



N.B. Baxronova

Texnik bo'limi boshlig'i



U.E. Vosiyev

Xarid komissiyasi kotibi:

Kapital va joriy ta'mirlash bo'limi
TICbB muhandisi



U.H. Hamzayev

**Texnik topshiriq va shartnoma loyihasi Xarid qilish hujjatlarining
ajralmas qismi hisoblanadi (alohida ilova qilinadi).**